



KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNING MUSIQIY-RITMIK IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY CHOLG'ULARNING O'RNI

Matnazarova Barshinay Ongarbay qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika-psixologiya va ijodiy ta'lim fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining musiqiy-ritmik iqtidorini shakllantirish va rivojlantirishda o'zbek milliy cholg'ularining pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritib berilgan. Undan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ritmik idrokining rivojlanish bosqichlari, shu bilan birga dars jarayonida milliy cholg'ulardan foydalanishning samarali metodlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Musiqiy-ritmik iqtidor, milliy cholg'ular, boshlang'ich sinf, doira, nog'ora, musiqiy idrok, pedagogik metodika, milliy qadriyatlar.

Inson shaxsini har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda estetik tarbiya, xususan, musiqa san'ati yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshi, ya'ni 6-10 yosh bolalarda musiqiy qobiliyatlarni, ayniqsa, musiqiy-ritmik idrokni rivojlantirish uchun eng qulay davrlardan biri hisoblanadi.

Musiqiy-ritmik iqtidor - bu faqatgina musiqani tinglash emas, balki uning vaqt mezonini, sur'ati ya'ni tempi va dinamikasini chuqur his qilish va uni tana harakatlari yoki cholg'u chalish orqali ifodalay olish qobiliyatidir. Bugungi kunda yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir davrda, musiqiy tarbiya jarayoniga o'zbek milliy cholg'ularini tizimli ravishda olib kirish alohida dolzarblik kasb etadi⁷.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asab tizimi va tayanch-harakat apparati faol rivojlanish bosqichida bo'ladi. Bu davrda bolalar tabiatan harakatchan, emotsional va taqlidchan bo'lishadi. Shvetsariyalik kompozitor va pedagog Emil Jak-Dal Kriz falsafasiga ko'ra, "Ritm - bu harakatdir va har qanday musiqiy ritm inson tanasining biologik ritmlari bilan uzviy bog'liq⁸", - deb hisoblagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ritm tuyg'usini rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etadi:

- diqqat va xotirani jamlashni yaxshilaydi;
- harakatlar koordinatsiyasini shakllantiradi;
- nutq kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

Milliy cholg'ularning o'ziga xos temбри va chalish usullari esa bolalarning diqqatini tez jalb qiladi va unda zerikish hissini qoldirmaydi.

Musiqa darslarida va darsdan tashqari to'garaklarda bolalar yoshiga mos keladigan eng sodda va samarali milliy cholg'ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Doira va nog'ora

⁷ Mirziyoyev Sh. M "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi Qarori. // Xalq so'zi gazetasi, 2018.

⁸ Asafyev B "Musiqiy forma kabi jarayon". - Moskva: "Музыка", 1971, 58-s.

kuchli va kuchsiz hisslarni ajratish va metroritmik barqarorlik qobiliyatlarini aniq rivojlantiradi. Dars jarayonida qo'llashda esa o'qituvchi ortidan ritmik mashqlarni qaytarish, shovqinli takrorlash mumkin. Chang va qonun esa melodik va ritmik eshitish qobiliyatining sintezini rivojlantiradi. Dras jarayonida qo'llashda esa elementar kuylarni chalish orqali ritmni vizual ko'rish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, doira cholg'usining o'rne beqiyos. Undagi "bumb", "bak", "vax" kabi asosiy zarblar bolalarga "kuchli" va "kuchsiz" parda tushunchalarini amaliy tushunishga yordam beradi.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, darslarda milliy cholg'ulardan muntazam foydalanilganda o'quvchilarning musiqani idrok etish darajasi, oddiy usullarda o'tilgan sinflarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ritmik aniqlik va barqarorlik, musiqiy asarni oxirigacha chalg'imasdan eshitish diqqati jihatidan ham, shu bilan birga milliy musiqaga bo'lgan qiziqish va motivatsiya jihatidan ham samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy-ritmik iqtidorini rivojlantirishda milliy cholg'ular shunchaki chalish vositasi emas, balki bolaning ichki emotsional olamini uyg'otuvchi, uning jismoniy va aqliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kuchli pedagogik instrumentdir.

Shuni ham aytish joizki, boshlang'ich sinf "Musiqqa madaniyati" darsliklariga milliy cholg'ular bilan ijro etiladigan ritmik mashqlar ulushini ko'paytirish, maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus "Kichkintoylar milliy ritmika" to'garaklarini tashkil etish hamda bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini tayyorlashda ularga bolalarbop milliy cholg'ularni yasash va ulardan darsda elementar usulda foydalanish metodikasini chuqurroq o'rgatish dars jarayonini yanada samaraliroq o'tkazishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi Qarori. // Xalq so'zi gazetasi, 2018.
2. Asafyev B "Musiqiy forma kabi jarayon". - Moskva: "Музыка", 1971, 58-s.
3. Qodirov R. "Musiqqa pedagogikasi". - Toshkent: "Musiqqa" nashriyoti, 2018, 14-b.
4. To'rayev S "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik metodikasi". - Toshkent: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 2021, 89-b.